Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari.....	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqa ta'limi" misolida).....	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi.....	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников.....	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools.....	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана.....	733
<i>Жамолитдинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi.....	747
<i>Muratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога - ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
Sulaymonov Jaxongir Solijonovich	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
Абдурахманов Отахон Рустамович	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах	780
Азамкулов Ахтамкул	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari	787
Jumayeva Muxlisa Shokir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati	793
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
Yusupova Madinajon Mansurbek qizi	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения	799
Заболотина Анна Анатольевна	
Loyihaga asoslangan ta'lim texnologiyasi orqali talabalarda ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyasini rivojlantirish tadqiqi	802
Jo'rayeva Zebiniso Yo'ldoshevna	
Alisher Navoiy asarlarida odob-axloq masalalarining falsafiy va tarbiyaviy talqini	807
Ahadova Feruzaxon Akmaljon qizi, Usmonova Sofiyaxon	
Globalashuv sharoitida ayollar ruhiy salomatligini saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari	810
Eshonqulova Guljahon Abduqaxxorovna	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi	814
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonsova Marjona G'ulomovna	
Maktabgacha ta'limda etnomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda teatr texnologiyalarining qo'llanilishi	819
Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Sharobiddinova Shahzoda Doniyorbek qizi	
Talabalarda agressiv xatti-harakatlar shakllanishining omillari	823
Sa'dullayeva Aziza Iskandar qizi	
Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida amaliy metodlar asosida kollaborativ va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish	829
Farsaxonova Mastura Jalol qizi	
Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi o'rni	836
Kimsanov Jamshidbek Maxamatrasul o'g'li	
O'qituvchilarda kasbiy so'nishning profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy-psixologik texnologiyalar	841
Jamoliddinova Nigora Tohirjon qizi	
Ta'limning raqamli modifikatsiyalari asosida talabalarining axborot mobilligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar	846
Xurramov Anvar Xudayshukurovich	
O'zbek musiqiy merosining tarixiy-pedagogik rivojlanishi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati	853
Yulyaxshiyev Sherali Narzullayevich	
Учёт индивидуальных особенностей студентов национальных групп медицинского вуза в обучении русскому языку	857
Мамаджанова Мохимир Рашидовна	
Zamonaviy baholash texnologiyalari va xorijiy tajriba (boshlang'ich sinf "ona tili" darslari misolida)	861
A'zamqulova Zilola Sunnat qizi	
STEAM ta'lim texnologiyasini boshlang'ich ta'limda qo'llashning me'yoriy-uslubiy asoslari	867
Abdug'afforova Aziza Abdurashid qizi, Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi	
Axborotni tanqidiy baholash asosida talabalarining mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	871
Abdullajonova Nurzoda Nurmaxamadovna	



Harbiy xizmatchilar faoliyatida professional kuyish sindromining oldini olish.....	874
<i>Abdumalikova Iroda Abdulaziz qizi</i>	
Plifunksional yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	879
<i>Abduraxmanova Mukaddam Mirsalikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning pedagogik asoslari.....	883
<i>Barotova Huriyatxon Uzoq qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning konseptual jadval va grafik organayzerlardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish modeli	887
<i>G'ofurova Sh. M.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish zarurati	892
<i>Jovmirzayeva Nargiza Kuvondikovna</i>	
Talaba sportchilarning mashg'ulot yuklamalarini nazorat qilish xususiyatlari.....	895
<i>Matnazarov Anvar O'ktamovich, Jumonzarov Jaxongir Shixnazar o'g'li</i>	
Psixologik konsultatsiyada media ta'sirini inobatga olish zarurati.....	898
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Soft Tissue Control: In the Aesthetic Zone.....	901
<i>Murodkulov Samandar, Narziev Firdavs, Buzruksoda Javohir</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni	905
<i>N. T. Misirova, Xursanova Mohinur Abdujabbar qizi, Ummatqulova Adashoy Baxtiyor qizi</i>	
Klassik ustoz–shogird an'analari va ularni innovatsion ta'lim usullari bilan uyg'unlashtirishning pedagogik imkoniyatlari	910
<i>Raxmanova Nigora Xusanboyevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim samaradorligini baholash usullari	914
<i>Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni tadqiq etishning nazariy-metodologik muammolari	918
<i>Shakirova Feruza Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarni pedagogik dasturiy vositalarni loyihalashga mo'ljallangan web platformalarning imkoniyatlari	922
<i>Shamsutdinov Fazliddin Axmadovich</i>	
Talabalarda virtual jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari.....	926
<i>Sodikova Odinaxon Abdugapporovna</i>	
Raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish modellari.....	930
<i>Suyunova Nargiza Abdurashid qizi</i>	
G'ovlar orasidagi ritmik masofa tuzilishining sportchilarning musobaqadagi natijalariga ta'sirini tahlil qilish	934
<i>Talipov G'ulomojon Adiljanovich</i>	
Efficacy of a New Ointment for the Treatment and Prevention of Alveolitis.....	938
<i>Umarov Maruf, Abdurazzaqov Kamoliddin, Buzruksoda Javohir</i>	
Tarbiyachi va pedagoglarning o'yin texnologiyalarini qo'llashdagi kasbiy tayyorgarligi hamda kommunikativ kompetensiyasi.....	941
<i>Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna, Ostonova Marjona G'ulomovna</i>	
Oila muhitida ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning pedagogik ahamiyati.....	945
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
6-7 yoshdagi bolalarni nutq o'stirish mashg'ulotlarida mustaqil fikrlashga o'rgatish.....	949
<i>Xabilova Sitora Tursunmurod qizi, Ziyadullayeva Madina</i>	
Local Anesthesia and Conduction Anesthesia	952
<i>Zulfiya Makhmudovna, Buzruksoda Javohir</i>	
Современное состояние и проблемы подготовки педагогических кадров к инклюзивному образованию	957
<i>Плиева Руслана Владимировна</i>	



G'OVLAR ORASIDAGI RITMIK MASOFA TUZILISHINING SPORTCHILARNING MUSOBAQADAGI NATIJALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH

Talipov G'ulomjon Adiljanovich

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada g'ovlar orasidagi masofa ritmining g'ovlar osha yugurish musobaqalaridagi natijalarga ta'siri o'rganildi. Unda yugurishning ritmik tuzilishi bilan bog'liq asosiy omillar, xususan sportchilarga to'siqlarni yengib o'tish jarayonida vaqt va energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiluvchi optimal qadam uzunligi hamda chastotasi tahlil qilindi. Shuningdek, g'ovlar orasidagi masofalardagi ritmik o'zgarishlarning yuguruvchilarning texnik harakatlari, tezlik ko'rsatkichlari va umumiy samaradorligiga ta'sirini ochib beruvchi ilmiy ma'lumotlar hamda amaliy kuzatuvlar asosida tahliliy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: ritmik tuzilish, masofa, yugurish texnikasi, sport natijalari, individual xususiyatlar, mashg'ulot dasturlari.

Abstract: This article examines the impact of rhythmic spacing between hurdles on hurdling competition results. It analyzes key factors related to the rhythmic structure of running, particularly optimal stride length and frequency that help athletes reduce time and energy expenditure while overcoming obstacles. In addition, based on scientific data and practical observations, analytical conclusions are presented that reveal the influence of rhythmic variations in inter-hurdle distances on runners' technical movements, speed indicators, and overall performance efficiency.

Key words: rhythmic structure, distance, running technique, sports results, individual characteristics, training programs.

Аннотация: В данной статье исследовано влияние ритма расстояний между барьерами на результаты в соревнованиях по барьерному бегу. Проанализированы основные факторы, связанные с ритмической структурой бега, в частности оптимальная длина шага и частота, которые позволяют спортсменам снизить затраты времени и энергии при преодолении препятствий. Также на основе научных данных и практических наблюдений разработаны аналитические выводы, раскрывающие влияние ритмических изменений расстояний между барьерами на технические движения, скоростные показатели и общую эффективность бегунов.

Ключевые слова: ритмическая структура, дистанция, техника бега, спортивные результаты, индивидуальные особенности, тренировочные программы.

KIRISH

G'ovlar osha yugurishda ritmik tuzilmani shakllantirish yosh yengil atletikachilar tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu sport turi nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, balki murakkab koordinatsion qobiliyatlarni ham talab etadi. Ritmik tuzilma yugurish texnikasini samarali bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, g'ovlarni muvaffaqiyatli yengish jarayoniga hamda ular orasidagi tezlik dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida yosh sportchilarning texnik tayyorgarligi muammosi sport tayyorgarligi tizimida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi (D. D. Donskoy) ^[2]. Sport mashg'ulotlari jarayonining samaradorligi, avvalo, ratsional texnik harakatlarni shakllantirish, xususan, sport mashqlarining ritmik tuzilishini o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois ushbu bosqichdayoq ratsional texnikani to'g'ri qurish kelgusida sportchining o'z sport turi uchun optimal yosh davrida yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi (L.P. Matveyev) ^[1].

Ko'plab tadqiqotchilar fikriga ko'ra, harakatlarning ritmini shakllantirish va takomillashtirish jismoniy tarbiya hamda sport mashg'ulotlaridagi ta'lim jarayonining yetakchi yo'nalishlaridan biridir (M.M. Bogen,



A.V. Samsonova) [3]. Shu sababli sportchilar, murabbiylar va olimlarning ritmik tuzilmani o'rganish, qayd etish hamda uni yanada rivojlantirish masalasiga qiziqishi tabiiydir. Mazkur jihatlardan kelib chiqib, boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida g'ovlar osha yugurishda ratsional texnikani shakllantirish muammosi alohida e'tiborga loyiqdir.

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, g'ovlar osha yugurishda ratsional ritm yuqori sport natijalarini belgilovchi yetakchi omillardan biri bo'lib, texnikaning to'g'riligi va samaradorligini aniqlovchi asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi (V.V. Balaxnichev) [4].

Yosh g'ovlar osha yuguruvchilarning texnik tayyorgarligi bo'yicha ilmiy-uslubiy manbalar tahlili, pedagogik kuzatuvlar hamda amaliy tajribalar natijasida quyidagi ziddiyatlar aniqlandi:

- a) sport mashg'ulotlari nazariyasida texnik tayyorgarlik tizimini chuqurroq ilmiy asoslash ehtiyoji mavjud bo'lsa-da, amaliyotda yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida g'ovlar osha yugurishning modeli ritmik xususiyatlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti;
- b) yosh sportchilarda ratsional texnikani shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj mavjud bo'lsa-da, boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida g'ovlar osha yugurishning modeli ritmik tuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik texnologiya ishlab chiqilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, yosh g'ovlar osha yuguruvchilarni tayyorlash samaradorligi ular uchun maxsus ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya qo'llanilgandagina yuqori natija beradi. Bunday texnologiya, eng avvalo, malakali sportchilarga xos yugurish texnikasining model xususiyatlarini aniqlash va ularni yosh sportchilarning tayyorgarlik jarayoniga kiritishni, shuningdek, mashg'ulotlarni oliy sport mahoratini egallashga maqsadli yo'naltirishni nazarda tutishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bilishning dialektik nazariyasiga asoslanildi. Ushbu yondashuv hodisalarni ularning rivojlanishidagi ichki jarayonlar bilan birgalikda, yaxlit va ko'p qirrali tarzda o'rganishni nazarda tutadi. Shu bois, fakt va hodisalarni tahlil qilishda tarixiy va mantiqiy yondashuv, nazariya bilan amaliyotning birligi, o'zaro bog'liqlik va ta'sirchanlik, ilmiy ishonchlilik hamda xolislik tamoyillari ustuvor bo'ldi.

Tadqiqot doirasida g'ovlar osha yugurishning modeli ritmik tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiya ishlab chiqildi va tajriba-sinovdan o'tkazildi. Ushbu texnologiya bir qator tarkibiy qismlarni mujassam etadi, jumladan, g'ovlar osha yugurish blokining ritmik tuzilmasi asosida yaratilgan maqsadli model, texnologiya bosqichlari hamda ularning vazifalari, bosqichlarni amalga oshirishning dasturiy-mazmunli va didaktik ta'minoti, yillik tayyorgarlik siklida mashg'ulotlarning davriylashtirilishi hamda ritmik tuzilmaning shakllanishini baholovchi kompyuter diagnostikasi.

Texnologiya psixomotor qobiliyatlarni rivojlantirish, shuningdek, interiorizatsiya, eksteriorizatsiya va stabilizatsiya bosqichlariga asoslangan holda ishlab chiqildi. Shu bilan birga, uning samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi pedagogik talablar majmui belgilandi. Mazkur talablar qatoriga nazariy tayyorgarlik hajmini kengaytirish, sportchilarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni hisobga olish, motivatsion sohani shakllantirish hamda yuguruvchilarning tezkor va tezkor-kuch qobiliyatlarini optimal rivojlantirish kiradi. Shuningdek, yosh yengil atletikachilarda g'ovlar osha yugurishning ritmik tuzilmasini shakllantirish texnologiyasining asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Ushbu tamoyillar mavjudlik, individuallashtirish, tizimlilik, mashg'ulot va musobaqa faoliyatining uzviy birligi hamda umumiy va maxsus tayyorgarlikning o'zaro aloqadorligidan iborat. Mazkur tamoyillar harakat ko'nikmalarini shakllantirish nazariyasiga sezilarli ilmiy hissa qo'shadi.

O'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, yosh g'ovlar osha yuguruvchilarning tayyorgarlik jarayonida asosiy maqsad sifatida malakali sportchilarga xos bo'lgan modeli ritmik tuzilmani shakllantirish ustuvor yo'nalish etib belgilandi. Shu maqsadda boshqaruvning diagnostik majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu majmua ritmik tuzilma haqidagi tezkor ma'lumotlarni olish, o'zgarishlar dinamikasini kuzatish, qiyosiy tahlil o'tkazish va uning asosida texnik harakatlarni tuzatish imkoniyatlarini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yosh yengil atletikachilarning texnik tayyorgarlik jarayonida g'ovlar osha yugurishning asosiy ritmik xususiyatlarini shakllantirish samaradorligi boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyani qo'llash bilan ta'minlanadi. Ushbu texnologiya o'zaro bog'liq bosqichlar tizimi, ularning dasturiy-mazmunli ta'minoti, bosqichlarni amalga oshirishga qo'yiladigan pedagogik talablar hamda ritmik tuzilmaning shakllanish darajasini baholash imkonini beruvchi kompyuterli diagnostika vositalaridan iboratdir. G'ovlar osha yugurish modelining ritmik xususiyatlari yosh sportchilarda pedagogik texnologiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida shakllanadi.



Birinchi bosqichda harakat ko'nikmasining ritmik tuzilmasini jadal rivojlantirish uchun zarur bo'lgan psixomotor qobiliyatlar shakllantiriladi. Keyingi bosqichlarda esa bu qobiliyatlar ritmik tuzilmaning mustahkamlanishi va uning modeli parametrlarga moslashtirilishi bilan boyitiladi. Boshlang'ich sport ixtisoslashuvi bosqichida yosh sportchilarda g'ovlar osha yugurishning ritmik tuzilmasini muvaffaqiyatli shakllantirish pedagogik texnologiya mazmunini amalga oshirish jarayonida quyidagi talablarga rioya etish orqali ta'minlanadi: nazariy tayyorgarlik hajmini kengaytirish, shug'ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishi va harakat tayyorgarligi haqidagi dastlabki hamda joriy ma'lumotlarni hisobga olish, sportchilarda yuqori motivatsiyani shakllantirish, o'quv jarayonida yaxlit o'qitish metodidan ustuvor foydalanish hamda kompleks pedagogik nazorat tizimini joriy etish.

O'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologiyaning uchinchi bosqichida tajriba guruhi ishtirokchilarida g'ovlar osha yugurishning ritmik tuzilishi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi va model parametrlarga yaqinlashdi, bu esa ishlab chiqilgan yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shartli belgilashda V, % – model parametrlariga nisbatan variatsiya koeffitsiyenti sifatida qabul qilindi. Tajriba guruhi sportchilarida g'ovlar blokidagi yugurish qadami davomiyligining variatsiya koeffitsiyentlari uch marotaba qayta urinishda ($r < 0,05$) sezilarli darajada past ko'rsatkichlarni namoyon etdi. Bu esa shakllangan harakat ko'nikmasining, ya'ni g'ovlar blokining ritmik tuzilishi barqarorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida texnologiyaning turli bosqichlarida hamda yakuniy sinovda ritmik tuzilmaning shakllanganlik darajasi bo'yicha qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida yugurish qadamlari variatsiya koeffitsiyenti bosqichma-bosqich yaxshilanib, model parametrlariga maksimal darajada yaqinlashdi ($r < 0,05$).

Nazorat guruhida ham ijobiy tendensiyalar kuzatildi, biroq ularning o'zgarishlari sezilarli emas va statistik ishonchlilikka ega emas edi ($r > 0,05$). Natijada, ritmik tuzilmaning model ko'rsatkichlariga moslik darajasi nazorat guruhida avvalgi og'ish darajasida saqlanib qoldi. G'ovlar osha va 50 metrga yugurish natijalarining qiyosiy tahlili tajriba guruhida g'ovlar osha yugurish natijalari sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatdi ($r < 0,05$).

Shu bilan birga, g'ovsizlik sharoitida (silliq masofada) guruhlar natijalari orasida sezilarli farqlar aniqlanmadi ($r > 0,05$).

Muhimi, tajriba guruhida g'ovlar bilan va g'ovlarsiz 50 metr yugurish vaqti farqi texnik samaradorlikning optimal mezoniga mos kelib, 1,05 soniyani tashkil etdi, nazorat guruhida esa bu farq 2,08 soniyaga yetdi. Ekspert baholash natijalariga ko'ra, g'ovdan o'tish texnikasi (hujum, o'tish, to'siqdan tushish elementlari) ikki guruh sportchilarida deyarli bir xil darajada qayd etildi (1-jadval).

1-jadval: Yosh yengil atletikachilarda g'ovlar osha yugurishda ritmik tuzilma ko'rsatkichlarining tajriba va nazorat guruhlariga bo'yicha solishtirma tahlili

Qadamlar	Model	Tajriba guruhi (i = 25)			Nazorat guruhi (n = 25)		
		ep ± c, c	Farq	V, %	cp ± O'', C	cp ± O, C	cp ± O, C
G'ovlar	0,525	0,516 ± 0,03	0,009	3,30	0,591 ± 0,05	0,591 ± 0,05	0,591 ± 0,05
1-chi	0,195	0,187 ± 0,02	1,46; > 0,05	9,10	0,185 ± 0,02	0,185 ± 0,02	0,185 ± 0,02
2-chi	0,300	0,304 ± 0,02	0,008	5,12	0,333 ± 0,03	0,333 ± 0,03	0,333 ± 0,03
3-chi	0,245	0,247 ± 0,01	1,35; > 0,05	6,44	0,325 ± 0,02	0,325 ± 0,02	0,325 ± 0,02

Shu asosda, tajriba guruhining yuqori natijasi, asosan, yugurish ritmining va g'ovlarni yengib o'tishning optimal ritmik tuzilmasini shakllantirish hisobiga erishilganligi taxmin qilinadi. G'ov bloklari ritmining va g'ovni yengib o'tish jarayonining yuqori ekspert baholari ham bu xulosani tasdiqlaydi ($r < 0,05$).

Yosh sportchilarda 50 metrga g'ovlar osha yugurish natijalari bilan g'ovlar blokining ritmik tuzilishining ayrim elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlili shuni ko'rsatdiki, deysinish nuqtasidan g'ovgacha bo'lgan masofa hamda g'ovlararo oraliqning uchinchi qadami davomiyligi manfiy korrelyatsiyaga ega ($g = -0,508$). Bu shuni anglatadiki, uchinchi qadam vaqti ortishi hujum uzunligining qisqarishiga olib keladi, natijada g'ov ustidan tik sakrash yuz beradi va umumiy yugurish tezligi pasayadi.

Tajriba guruhi ishtirokchilarida g'ovlar blokining modeli ritmik tuzilishini maqsadli shakllantirish natijasida g'ovni yengib o'tishning oqilona ritmi (hujum va tushish uzunliklarining nisbatiga ko'ra) muvaffaqiyatli shakllandi. Ularning ko'rsatkichlari 60,5 : 39,5 % nisbatda qayd etildi va bu model parametrlariga yaqin natija hisoblanadi. Aksincha, nazorat guruhida mazkur nisbat buzilgan bo'lib, 57,2 : 42,8 % darajasida qayd etildi. Ushbu holat, yuqorida qayd etilganidek, g'ovlararo uchinchi qadamning ortiqcha cho'zilishi va g'ov ustidan uchish fazasining ortishi bilan bog'liq bo'lib, butun blokning ritmik tuzilishini izdan chiqaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi bir qator omillar bilan ta'minlandi: tadqiqot mantig'iga qat'iy rioya etilishi, dastlabki nazariy-uslubiy qoidalar majmui, qo'yilgan vazifalarga mos keluvchi obyektiv tadqiqot metodlaridan foydalanilishi, pedagogik tajriba-sinov ishlari metrologik talablar asosida tashkil etilishi, natijalarni zamonaviy hisoblash texnikasi yordamida matematik-statistik qayta ishlash hamda olingan ma'lumotlarning batafsil ilmiy talqin qilinishi. Shunday qilib, tadqiqot natijalari qo'yilgan maqsadga erishilganini va belgilangan vazifalar izchil hal qilinganini tasdiqlaydi. Olingan ma'lumotlar yosh sportchilarda g'ovlar osha



yugurish ritmik tuzilmasini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning yuqori samaradorligini asoslab berdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yosh sportchilarni g'ovlar osha yugurish texnikasiga o'rgatish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy va uslubiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sport tayyorgarligining dastlabki bosqichlarida ushbu turdagi yugurishning asosiy ritmik xususiyatlarini shakllantirish bo'yicha aniq metodik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli muammoni samarali hal etish uchun malakali sportchilarning musobaqa faoliyati modelidan kelib chiqqan holda g'ovlar osha yugurishning ratsional ritmik tuzilmasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyani ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi.

Taklif etilgan texnologiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- g'ovlar osha yugurishning model ritmik xususiyatlarini maqsadli shakllantirish;
- o'qitishning izchil bosqichlari va ularning dasturiy-mazmunli ta'minoti;
- pedagogik talablar tizimi;
- instrumental diagnostika majmuasi.

Tadqiqot davomida model ritmik tuzilmani shakllantirish jarayonida texnologiyani amalga oshirishning to'rt bosqichi ajratib ko'rsatildi:

- psixomotor qobiliyatlarni rivojlantirish - g'ovlar osha yugurish texnikasini egallash uchun zarur bo'lgan asosiy psixomotor imkoniyatlarni shakllantirish;
- interiorizatsiya - tashqi berilgan ritmik tuzilmani sportchi ongida o'zlashtirish va uni ichki harakat modeli sifatida qabul qilish;
- eksteriorizatsiya - shakllangan ichki modelni amaliy harakat faoliyatiga o'tkazish, ya'ni yugurish ritmini texnik bajarishga moslashtirish;
- barqarorlashuv - tobora murakkablashib boruvchi sharoitlarda modelli ritmik tuzilmaning nisbiy mustahkamlanishi.

Tajriba jarayonida yosh sportchilarda g'ovlar osha yugurish ritmini shakllantirish samaradorligi instrumental diagnostika vositalari orqali nazorat qilindi. Ushbu majmua seysmodatchiklar, signal kuchaytirgich va shaxsiy kompyuterdan iborat bo'lib, yugurish qadamlari davomiyligini aniqlash va natijalarni raqamli yoki grafik ko'rinishda qayd etish imkonini berdi. Bu esa individual ritmik tuzilmaning model parametrlarga muvofiqligini baholash hamda zarur hollarda texnika elementlariga yoki ritmga tuzatishlar kiritishga sharoit yaratdi. Pedagogik tajriba natijalari ishlab chiqilgan texnologiyani qo'llashning samaradorligini tasdiqladi.

Tajriba guruhi sportchilari nazorat guruhiga nisbatan g'ovlar blokidagi yugurish qadamlari davomiyligining optimal nisbatlarini ancha yuqori darajada shakllantira oldilar ($r < 0,05$). Shuningdek, 50 metrga g'ovlar osha yugurish natijalari ($r < 0,01$) va texnik ko'rsatkichlarida ($r > 0,05$) sezilarli ustunlikka erishildi. Bu esa ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning sport natijalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Матвеев Л. П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: учеб. пособие. - М.: Известия, 2001. - 175 с.
2. Донской Д. Д. Биомеханика: учеб. пособие для пед. ин-тов. - М.: Просвещение, 1975. - 239 с.
3. Боген М. М. Обучение двигательным действиям. - М.: Физкультура и спорт, 1985. - 192 с.
4. Балахничев В. В. Бег на 110 м с барьерами. - М.: Физкультура и спорт, 1987. - 80 с.
5. Барьерный бег: пособие / В. В. Мехрикадзе [и др.]. - Минск: Изд-во БГУФК, 2013. - 66 с.
6. Искра Я. Современная тренировка в барьерном беге: метод. издание. - М., 2014. - 88 с.
7. Карасев А. В., Черенева Л. А. Спринтерский и барьерный бег: учеб. пособие. - М.: Палеотип, 2013. - 12 с.
8. Макарук Б. Влияние преодоления мини-барьеров разной высоты на кинематику спринтерского бега // Теория и практика физической культуры. - 2021. - № 5. - С. 18-20.
9. Миронов Д. Л., Егоров В. Н., Попов Э. М. Анализ эффективности различных подходов к скоростно-силовой подготовке юных легкоатлетов-спринтеров // Известия Тульского государственного университета. Физическая культура. Спорт. - 2016. - Вып. 4. - С. 132-138.
10. Оганджанов А. Л., Цыпленкова Е. С. Контроль технической подготовленности квалифицированных десятиборцев в барьерном беге // Известия Тульского государственного университета. Физическая культура. Спорт. - 2020. - Вып. 3. - С. 111-118.
11. Цыбулевский Н. С., Самойлов Г. В. Особенности динамики соревновательных результатов сильнейших молодых десятиборцев России и мира // Актуальные проблемы теории и практики физической культуры, спорта и туризма: сб. материалов IX Всерос. науч.-практ. конф. молодых ученых, аспирантов, магистрантов и студентов с междунар. участ., посвящ. Году науки и технологий. - Казань: Изд-во ПГАФКСТ, 2021. - С. 647-649.
12. Легкая атлетика: учебник для ин-тов физ. культуры / под ред. Н. Г. Озолина, В. И. Воронкина, Ю. Н. Примакова. - 4-е изд., доп. и перераб. - М.: ФиС, 1989. - С. 334-373.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.